

LINGVOMADANIY SO‘ZLARNING TILDAGI O‘RNI VA QO‘LLANISHI

Keldiyorova Farangiz Akbar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi

farangizkeldiyorova911@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvomadaniy so‘zlar va ularning tilshunoslikda tutgan o‘rni, lingvomadaniy so‘zlarning boshqa til birliklaridan farqi, ularning qo‘llanishi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Lingvomadaniy so‘zlarning xalq turmush tarzi, ularning dunyoqarashlarini aks ettirishi hamda lingvomadaniy so‘zlar xalqning madaniyati, turmush tarzi haqida ma’lumot berishi izohlangan. Lingvomadaniy so‘zlarni kengroq o‘rganish va ular doirasidagi tadqiqotlarni kengaytirish ma’lum bir xalq haqidagi ma’lumotlarimiz oshishiga va bundan tashqari muayyan tilning ichki xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvomadaniy so‘zlarni o‘rganish, ular haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lish, tillarni bir-birdan farqlash imkonini beradi va tillarni izohlash jarayonida keng tushunchalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy so‘zlar, milliylik, lingvokulturologiya, realiya, leksika, muqobilsiz leksika, milliylik, transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, tasviriy usul.

PLACE AND USE OF LINGUISTIC WORDS IN THE LANGUAGE

Abstract: This article focuses on linguistic and cultural words and their role in linguistics, differences between linguistic and cultural words from other language units, and their use. It is explained that the linguistic and cultural words reflect the people's way of life, their worldviews, and that the linguistic and cultural words provide information about the people's culture and lifestyle. A wider study of linguistic and cultural words and the expansion of research within them is important for increasing our knowledge about a certain people, and also for studying the internal characteristics of a certain language. Studying linguistic and cultural words allows you to have more information about them, to distinguish languages from each other, and to gain a broad understanding in the process of interpreting languages.

Key words: linguistic and cultural words, nationality, linguoculturology, reality, lexicon, non-alternative lexicon, nationality, transcription, transliteration, copying, descriptive method.

МЕСТО И УПОТРЕБЛЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ СЛОВ В ЯЗЫКЕ

Аннотация: Данная статья посвящена лингвокультурным словам и их роли в лингвистике, отличиям лингвокультурных слов от других языковых единиц, их использованию. Поясняется, что лингвокультурные слова отражают образ жизни народа, его мировоззрение, а лингвокультурологические слова несут информацию о культуре и образе жизни народа. Более широкое изучение лингвокультурных слов и расширение исследований внутри них важно для увеличения наших знаний об определенном народе, а также для изучения внутренних особенностей определенного языка. Изучение лингвокультурных слов позволяет иметь о них больше информации, отличать языки друг от друга, достигать широких представлений в процессе устного перевода.

Ключевые слова: лингвокультурные слова, национальность, лингвокультурология, реальность, лексика, безальтернативная лексика, национальность, транскрипция, транслитерация, копирование, описательный метод.

Kirish. Olam rivojlanishi davom etar ekan, ilm-fanda ham yangi kashfiyotlar yuzaga chiqib, bizga noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlar ochilmoqda. Yaqin yillarda tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi ham ilm-fanning bugungi kundagi yutuqlaridan biridir. Lingvokulturologiya, psixolingvistika, matn tilshunosligi, pragmalolingvistika, sotsiololingvistika kabi yangi sohalar tilni chuqur tahlil qilishda, til birliklarining milliy-madaniy, siyosiy-ijtimoiy xususiyatlarini aks ettirishda, inson ruhiyati, milliy qadriyatlar va an'analarni ifodalashda muhim rol o'ynadi. Tilshunoslikda ushbu masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar tobora ortib bormoqda. Manashunday jarayonda biz o'rganishni maqsad qilgan lingvomadaniy so'zlarning o'zbek tilidagi o'rni, ularning qo'llanilishi va realiyalardir.

Bu kabi tushunchalarni o'rganishdan maqsad – so'zlovchi va uni anglovchi shaxs faoliyatida lisoniy omilning ahamiyatini aniqlash va matnning semantik,

lingvomadaniy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Bu jihatdan hozirgi kunda ko'pchilikni qiziqtirayotgan til va madaniyat tushunchalarini o'zida ifoda etgan lingvomadaniyat masalalari ko'pchilik tilshunoslar tomonidan o'rganilayotganligiga qaramay, hozircha yechimini topib ulgurmasi va bir qancha muammolarga sabab bo'lib kelmoqda.

Muhokama va natijalar. O'zbek tilshunoslik ilmida ham lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab". N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini. D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o'rganilgan.

Har bir millatning o'ziga xos milliylikni aks ettiruvchi xususiyatlari mavjud. Ular urf-odat, an'ana va boshqa jihatlar orqali o'z aksini topadi. Bu jihatdan har bir insonda bu jihatlarni ifoda etuvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, biz tilning ijtimoiy hodisa ekanligini yaxshi bilamiz. Hozirgi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida maxsus yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Dastlab bu kabi tushunchalarning ma'nolariga to'xtalsak:

Milliylik-har bir millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xos bo'lgan tushunchalardir.

Lingvokulturologiya “til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.

Realiya lingvomadaniyatshunoslikning bir tarmog‘i, realiya so‘zi lotincha “realia” dan olingan bo‘lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma’nolarni anglatadi. Lingvistik atamalar lug‘atida unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so‘zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik” deyiladi.

Leksika (yun. lexis — so‘zga oid, lug‘aviy) — tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi, tilning lug‘at tarkibi. Leksika ma’lum qonun-qoidaga bo‘ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til Leksikasi to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. Bu narsa lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste’moldan chiqishi, leksik ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi.

Leksik qatlam:

O‘zbek leksik qatlamlar asosiy 3 qatlamlarga bo‘linadi:

1. Zamonaviy qatlam — o‘zbek tili leksikasining asosini tashkil qiladi va ular eskilik va yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan so‘zlar hisoblanadi.
2. Eski qatlam — bu qatlamga istorizmlar va arxaizmlar kiradi va bular hozir ham iste’molda bo‘lgan so‘zlardir.
3. Yangi qatlam — hozirgi zamonaviy til jihatidan yangi leksika deb ham yuritiladi.

Lesikaning tushunchasi va qatlamlari haqida aniq bir to‘xtamlar mavjud lekin leksikada yana shunday bir atama mavjud bo‘lib bu atama bo‘yicha aniq to‘xtamga kelinmagan. Bu so‘z tilshunoslikda “Muqobilsiz leksika” deb yuritiladi. Bu termin tilshunoslikka U. M. Vereshchagin va V. G. Kostomarovlar tomonidan kiritilgan.

Muqobilsiz leksika boshqa bir tilga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan, ma'lum bir xalq madaniyatiga xos belgilarini ifodalovchi hodisa hisoblanadi. Har qanday til dialektda boshqa bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar, frazeologik birliklar, tushunchalar mavjud bo'ladi: mehr-muhabbat, mehr-oqibat, mehr-shafqat va shu kabi frazeologik birliklar. Bu kabi birliklarni tarjima qilish oson emas va bu jarayonda tarjima tiliga aynan shu so'z ifodalovchi ma'noni bera olmasligimiz ham mumkin, chunki bu kabi so'zlar ma'lum bir millatga xos milliylikni ifoda etuvchi birlik hisoblanib, bir millatda mavjud bo'lgan milliy so'z boshqa bir millatda o'z ifodasini topmagan bo'lishi mumkin.

Bu kabi so'zlarni tarjima qilish murakkab jarayon hisoblanadi va bu so'zlarni tarjima qilishda bir necha tarjima usullaridan foydalanib tarjima qilishimiz mumkin:

1. Transliteratsiya usuli orqali bir tilning yozuv tizimidagi so'zlarni boshqa bir tilning yozuv tizimiga harfma-harf yoki biroz moslashtirish orqali olib o'tish usuli. Bu jarayon so'zlarning muqobil varianti bo'lmaganda qo'llaniladi. Bu usuldan tarjimon yangi so'z yoki ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zning izohidan va uni xato talqin qilishdan saqlanish uchun foydalanadi.

2. Transkripsiya usuli orqali bir tilning boshqa tilda muqobili bo'lmagan so'zlarini boshqa til yozuv tizimida ularning talaffuziga yaqin holda ko'chirish usuli. Bu jarayonda so'zlarning har biri qanday eshitilsa, shunday yoziladi.

3. Kalkalash usuli orqali tarjima qilish keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Bunda tarjima tilida muqobili bo'lmagan so'z tarjima tiliga so'zma so'z tarjima qilinadi.

4. Tasviriy usul orqali tarjima qilish barcha yuqoridagi kabi usullarga mos kelmaydigan holatlarda qo'llaniladi. Bunda bir so'z tarjima tiliga tasvirlash orqali bir jumla yoki butun bir gap holatida beriladi.

Lingvomadaniy so'zlar har bir xalqda mavjud va ular har bir xalqning qadriyatlari haqida so'zlaydi. Ular tilda muhim ahamiyat kasb etadi va ularning muhim vazifalari mavjud. Ularning tildagi asosiy o'rni quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

1. Madaniy xotirani saqlash: Lingvomadaniy so'zlar ta'kidlanganidek, har bir tilning madaniy merosini, urf-odatlarini va tarixini avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali xalqning tarixi va madaniyati avloddan-avlodga o'tadi.

2. Milliy identifikatsiya: Bu soʻzlar biror xalqning milliy oʻziga xosligini belgilaydi va boshqa madaniyatlardan farqlashga yordam beradi. Masalan: “Navroʻz” soʻzi yangi yil bayramini, xalqning bahorgi urf-odatlarini va anʼanalarini aks ettiradi.

3. Kommunikativ funksiya: Lingvomadaniy soʻzlar turli xalqlar oʻrtasida madaniy almashinuvni taʼminlaydi, boshqa madaniyatlarni tushunishga yordam beradi. Ular xalqlar oʻrtasidagi muloqotda madaniy farqlarni yengillashtiradi. Masalan: “Thanksgiving” soʻzi Amerikaning tarixiy bayramini aks ettiradi va bu bayramning maʼnosini boshqa madaniyatga tushuntiradi.

4. Til boyligini oshirish: Ular tilning boy va rang-barang boʻlishini taʼminlaydi, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Masalan, ingliz tilidagi “pub” soʻzi britan madaniyatining ijtimoiy hayotini koʻrsatadi va bu soʻz boshqa tillarda ham qoʻllanila boshlaydi.

Lingvomadaniy soʻzlarning ahamiyati juda muhim hisoblanadi va shu bilan birga lingvomadaniy soʻzlarning qoʻllanish oʻrinlari ham mavjuddir:

1. Adabiyot va sanʼatda:

Milliy madaniyat va urf-odatlarini tasvirlashda keng qoʻllaniladi. Adabiyotda lingvomadaniy soʻzlar orqali xalqning madaniyati va urf-odatlarini aks ettiriladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning asarlarida koʻplab qirgʻizcha lingvomadaniy soʻzlar uchraydi.

2. Rasmiy va norasmiy muloqotda:

Rasmiy hujjatlar, nutqlar va suhbatlarda milliy oʻziga xoslikni ifodalash uchun ishlatiladi. Lingvomadaniy soʻzlar rasmiy va norasmiy muloqotda xalqning madaniyati va urf-odatlarini koʻrsatadi.

3. Taʼlim jarayonida:

Til va adabiyot darslarida oʻquvchilarga milliy madaniyatni oʻrgatish uchun qoʻllaniladi. Misol uchun, oʻzbek tilida “sumalak” soʻzi bahoriy taomni ifodalaydi va bu soʻz orqali oʻquvchilar xalqning bahorgi urf-odatlarini oʻrganadilar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni taʼkidlash joizki, lingvomadaniy soʻzlar madaniyat va tilga aloqador, har ikkala sohani oʻz ichiga olgan jarayondir. Lingvomadaniyat doirasida ega boʻlgan bilimlarimiz bizning madaniyatlararo tushunchalarimizni kengaytirib, ularning qadriyatlarini va anʼanalarini anglashimizga yordam beradi.

Lingvomadaniyat haqida keng tushunchalarga va ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarning kamayishiga sabab bo‘ladi hamda boshqa bir millat ruhiyatini, milliy tushunchalarini asarlar misolida tilimizga olib kirish jarayoni osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonova Mahbuba Olimovna. Maqola :
“LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK FANINING TARIXIY VA
NAZARIY NEGIZLARI” [LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK
FANINING TARIXIY VA NAZARIY NEGIZLARI \(cyberleninka.ru\)](https://cyberleninka.ru/article/view/LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK_FANINING_TARIXIY_VA_NAZARIY_NEGIZLARI)
2. [Breaking Barriers: The Power of Language in Cross-Cultural Communication
- Language Unlimited \(languagesunlimited.com\)](https://languagesunlimited.com/)
3. Pazeledinova Sayyora Tursunboy qizi. Maqola:” MUQOBILSIZ LEKSIKA”
[MUQOBILSIZ LEKSIKA \(cyberleninka.ru\)](https://cyberleninka.ru/article/view/MUQOBILSIZ_LEKSIKA)
4. [Language | Definition, Types, Characteristics, Development, & Facts |
Britannica](https://www.britannica.com/topic/language)
5. [Leksika - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Лексика)